

Mavzu: Qo‘qon xonligi (XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmi)

Reja

- 1.Qo‘qon xonligining tashkil topishi va undagi asosiy siyosiy voqyealar.
- 2.Qo‘qon xonligining ijtimoiy iqtisodiy xayoti.
- 3.XVIII asrda Toshkent.

Tayanch so‘zlar, iboralar va tushunchalar: Qo‘qon xonligining tashkil topishi.XVIII asrda xonlikning siyosiy hayoti.Qo‘qon xonligi XIX asrning birinchi yarmida.Qo‘qon xonligining ijtimoiy iqtisodiy xayoti.Xonlikdagi xalq xarakatlari va isyonlar.

Buxoro xonligiga tobe Farg‘ona vodiysida XVIII asr boshlarida tashkil topgan davlat. XVIII asrda Qo‘qon xonligi faqatgina Farg‘ona vodiysini o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu davlat XIX asr boshlariga kelib Toshkent vohasi, hozirgi Qirg‘iziston respublikasi hududlari, Janubiy Qozog‘iston va Shimoliy Tojikiston hududlarini o‘z ichiga oldi. XIX asr 60 yillarida esa Sharqiy Turkistondagi Yettishahar davlatini ham o‘z tarkibiga kiritgan yirik davlatga aylandi. Qo‘qon xonligi 1876 yil chor rossiyasi istilochilari tomonidan tugatildi va uning o‘rnida tashkil etilgan Farg‘ona viloyati Turkiston general-gubernatorligiga qo‘shib olindi.

Qo‘qon xonligi tarixiga oid manbalar ichida mahalliy tillarda bitilgan asarlar, rus yelchilari, sayyohlari va harbiylari tomonidan yozilgan hisobotlar hamda arxiv hujjatlari. Qo‘qon xonligi arxiviga oid saqlanib qolgan hujjatlar muhim o‘rin tutadi.

Qo‘qon xonligi tarixi haqida ma‘lumotlar beruvchi mahalliy mualliflar asarlari ichida Miraziz bin Muhammad rizo Marg‘iloniyning «Tarixiy Aziziy», Otabek fozil o‘g‘lining «Mufassal tarixi Farg‘ona», Mullo Olim Maxmudxojaning «Tarixi Turkiston», Mullo Mirzo Olim Mullo rahim Toshkandiyning «Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin», Isxoqxon Junaydullaxoja o‘g‘li Ibratning «Tarixi Farg‘ona», Avaz Muhammad Attor Xuqandiyning «Tarixi Jahonnamoyi», Mullo Niyoz Muhammad ibn Mullo Ashur Muhammad Xo‘qandiyning «Tarixiy ShohruXIy», Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar», Mullo Ali qori Qunduziyning «TavoriXI manzuma» asarlari va boshqa asarlar alohida o‘rin tutadi. : Qo‘qon xonligi tarixiga oid manbalar orasida mahalliy tillarda yozilgan asarlar, rus va boshqa halqlar tomonidan yozib qoldirilgan asarlar va yodgorliklar, hisobotlar, qaydnomalar va hujjatlar asosiy o‘rin tutadi.

Mahalliy tillarda yozilgan asarlar orasida bevosita tarixiy davr yoki voqyealarni yoritib beruvchi asarlar bilan bir qatorda biografik va jangnoma ruhidagi bir qator asarlar o‘rin olganki, ular yordamida biz Qo‘qon xonligining XIX asr birinchi yarmi va boshqa davrlarni bemalol yoritish olish imkoniga yega bo‘lamiz.

Bunda asarlar qatoriga Muhammad Yunus Toibning «Tarixi Aliquli Amirlashkar», Avaz Muhammad Attor Xo‘qandiyning «Tarixi Jahonnomayi», Otabek Fozilbek o‘g‘lining «Mukammal tarixi Farg‘ona», Niyoz Muhammad Xo‘qandiyning «Tarixi ShohruXIy», Muhammad Aziz Marg‘iloniyning «Tarixi Aziziy» va boshqa bir qator asarlarni keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, bugungi kunda A.Navoiy nomidagi MDK ning nodir kitoblar bo‘limida saqlanayotgan bir qator rus mualliflari qalamiga mansub asarlar hamda arxiv hujjatlari

ham Qo'qon xonligining XIX asrga oid tarixini o'rganishimizda muhim manbalar hisoblanadi.

Ashtarxoniy Subhonqulixon vafotidan so'ng Buxoro taxtiga o'tirgan Ubaydullaxon hukmronligi (1702-1712) davrida xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat chigallashib markaziy hokimiyat ancha zaiflashdi. Bunday siyosiy vaziyatdan foydalangan Farg'ona vodiysi Buxorodan ajralib chiqishga harakat qildi. Birinchi bo'lib Chodak mavzesidagi xojalar bosh ko'tarib chiqishdi va o'z mulklarini mustaqil deb ye'lon qilishdi. Ularning ixtiyorida Targova, Pillaxon, To'qaytepa, Parnoq, Tepaqa'rg'on va Qaynar kabi mulklar bor bo'lib, bu voqyea 1709 yil sodir bo'lgan yedi.

Shu vaqtda ming urug'i oqsoqollari Ubaydullaxon II ning minglarga nisbatan tazyiqni kuchaytirib yuborganiga qarshi hamda o'z mustaqil davlatlarini barpo qilishga intilib, o'z faoliyatlarini kuchaytiradilar. 1709-1710 yillarda ular alohida beklik tuzgan Chodak xojalarining hokimiyatini ag'darib tashlaydilar va o'z hokimiyatlarini o'rnatadilar. Shu tariqa 1710 yilda Shohruxbiy (1710-1721) boshchiligidagi minglar urug'i Farg'ona vodiysida o'z davlatlariga asos soladilar. Dastlabki vaqtda bu davlat tarkibiga Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Qonibodom, Isfara kabi hududlar kirgan bo'lsa, Shohruxbiyning vorisi Muhammad Abdurahimbiy hukmronligi yillarida (1721-1733) davlat hududlari ancha kengaydi. U Andijon va Xo'jandda o'z hukmronligini o'rnatadi. O'ratepani qo'lga kiritadi. qisqa vaqt Samarqand va Kattaqa'rg'on shaharlarini yegallab, Shahrisabzga ham tahdid soladi. Abdurahimbiy qo'qon qishlog'i yaqinida katta shahar qurdira boshlaydi. Dastlabki vaqtlarda bu shahar «Qal'ai rahimbiy» deb atala boshlagan. U qattiq kasallanib, 33 yoshida Xo'jandda vafot yetgach, undan Yerdonabek ismli o'g'il uch qiz qolgan bo'lishiga qaramay, taxtga uning ukasi Abdukarimbiy o'tiradi (1733-1751). Abdukarimbiy yangi shahar qurilishini tugallab, poytaxtni Tepaqa'rg'ondan Qo'qonga ko'chirib keltiradi va Qo'qon shahri davlatining poytaxtiga aylanadi hamda davlat ham yendi Qo'qon xonligi degan nom oladi. (Shaharning Qatag'on, Marg'ilon, Toshkand, Haydarbek kabi darvozalari bo'lgan).

Abdukarimbiyning hukmronligi yillarida markaziy davlat hokimiyati ancha mustahkamlanadi va xon tomonidan halqning farovonligiga ko'p ye'tibor berildi. 1745-46 yillarda Farg'ona vodiysiga qalmoqlar hujumi sodir bo'ldi va qalmoqlar O'sh, Andijon, Marg'ilon va boshqa joylarni yegallab oldilar. Qo'qon shahri qamal qilib turilgan bir vaqtda O'ratepa hokimi Fozilbek yordamga yetib keladi va qalmoqlar bu yerdan haydab chiqariladi va bosib olgan yerlari yana qaytarib olinadi. Qalmoqlar hujumi mamlakat iqtisodiy hayotiga ancha katta zarar yetkazadi.

Abulkarimbiy 40 yoshida vafot yetgach, bir qancha muddat Qo'qon xonligi taxti qo'lidan qo'lga o'tib turadi. Abulkarimbiydan so'ng taxtga o'tirgan o'g'li Abdurahmonbiy olti oygina taxtni boshqaradi va taxtdan tushirilib, Marg'ilonga hokim yetib tayinlanadi. (1751)

Taxtni Erdonabiy egallaydi (1751-1753). U o'zining dastlabki qisqa vaqtlik hukmronligi yillarida xonlikni mustahkamlashga harakat qiladi va O'sh hamda O'zgardni bo'ysundiradi. Biroq Erdonabiy ham tez orada taxtdan tushiriladi va o'rniga Bobobek o'tkaziladi (1753-1754). Biroq qalmoqlar tomonidan taxtga chiqarilgan Bobobek 1754 yilda Beshariqda o'ldiriladi va o'rniga qaytadan Erdonabiy o'tkaziladi. Erdonabiyning keyingi hukmronligi yillarida siyosiy vaziyat ancha keskin bo'lib turadi (1755-1769) va oddiy mehnatkash aholining ahvoli birmuncha og'irlashdi.

Erdonabiy vafotidan so'ng taxtga Shohruxbiyning uchinchi o'g'li Shodibiyning

o'g'li Sulaymonbek o'tkaziladi. Biroq u 1769 yilda bor yo'g'i olti oygina hukmronlik qilib, fitnachilar tomonidan o'ldiriladi va taxtni Abdurahmonning o'g'li Norbutabiy yegalladi. Norbutabiy markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun ko'p harakat qiladi. Dastlab u o'zboshimchalikka intilgan beklarni markaziy hokimiyatga bo'ysundiradi. Chust va Namanganda ko'tarilgan isyon va g'alayonlarni bostirgach, u yerlarda o'ziga sodiq kishilarni qoldiradi va Xo'jandni ham yegallaydi. Hukmronligining oxirga yillarida Toshkentni bosib olishga ham intilgan Norbutabiy muvaffaqiyasizlikka uchraydi va u yuborgan Xonxo'ja boshchiligidagi lashkar Toshkent yaqinida mag'lubiyatga uchraydi. Norbutabiy vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Olimbiy o'tiradi (1798-1810). Olimxon hukmronligi yillarida Qo'qon xonligining siyosiy mavqeyi ancha oshdi. Olimbiy dastlab harbiy islohotlar o'tkazib, qo'shinni ancha kuchaytirdi. Harbiy yurishlar qilib, Angren vohasini, Toshkent, Chimkent va Turkistonni o'ziga bo'ysundirdi. Bu hududlarni qo'lga kiritgach, Qo'qon xonligi bevosita rossiya bilan tashqi savdo aloqalari uchun yo'l ochildi. Qo'qon xonligi kuchayib borishi bilan uning siyosiy maqomi ham o'zgardi. Dastlabki vaqtlarda «biy» yoki «bek» unvonlarida davlatni boshqargan Qo'qon hukmdorlari 1805 yilda Olimxon tomonidan joriy yetilgan «xon» unvoni bilan yuritiladigan bo'ldi. Shu vaqtdan boshlab Olimxon «xon» deb ye'lon qilindi va davlat ham Qo'qon xonligi deb yuritiladigan bo'ldi. Markaziy hokimiyatni kuchaytirishga bo'lgan intilishi yo'lida Olimxon bir qancha yirik amaldorlar va xon xonadoniga mansub kishilarni qatl qildirdi, xon hokimiyatning cheksizligini ta'minladi. Bu yesa xondan norozi bo'lgan amaldorlar va beklarning Olimxondan noroziligi ortishiga olib keldi. Olimxonga «Zolimxon» degan laqab berildi. Olimxon o'z ukasi rustambekni va bir qancha din peshvolarini o'ldirib yuborgach, undan norozi bo'lgan kishilarning soni yanada ortdi, manbalarda ta'kidlanishicha, bu odamlarga xonning ukasi Umarbek boshchilik qilgan.

1810 yilda Olimxon o'g'li Shohruxxon bilan Toshkentga qaytayotgan vaqtda Oltiqush mavzesida andijonlik Qambarmirzo tomonidan otib o'ldiriladi va taxtni ukasi Umarbek yegallaydi.

O'zini «amir» deb atagan Umarxon davlat tepasiga kelgach, mamlakatda ko'plab g'alayonlar va isyonlar avj oldi. Chimkent va Turkistonda g'alayonlar ko'tarildi. O'ratepa hokimi unga bo'ysunishdan bosh tortdi.

Ammo davlatni boshqarishda katta ta'sirga yega bo'lgan din peshvolari va harbiy sarkardalar bilan ittifoq bo'lib ish tutgan Umarxon bu g'alayonlarni bostirib, xonlik hududlarini bo'linib ketishdan saqlab qoldi.

1818 yilda Qo'qonda katta jome masjidni qurish haqida farmon berib, Umarxon din homiysi sifatida ham o'z mavqeyini oshirib yubordi va «Amir ul-muslimin» unvonini ham qo'lga kiritdi va amalda diniy va dunyoviy hokimiyat yegasi bo'lib qoldi. Amir Umarxon Toshkentga ham yurish qildi va uni yegasi bo'lib qoldi. Amir Umarxon Toshkentga ham yurish qildi va uni yegallab (1811). Lashkar qushbegini shaharga hokim yetib tayinladi va rajab qushbegini Turkistonga jo'natdi. Turkiston yegallangach, unga Shayx Bedil dodxohni hokim yetib tayinladi. Amir Haydarga qarshi Jizzax uchun olib borilgan kurashlar Umarxonga muvaffaqiyat keltirmadi. Umarxon davrida Qo'qon xonligida adabiyot va she'riyat ancha yuksaldi, iqtisodiy ahvol birmuncha yaxshilandi.

«Jannatmakon» nomini olgan Amir Umarxon 1822 yilda kasallanib vafot yetdi va taxtni o'g'li Muhammad Alixon yegalladi. Madalixon davrida (1822-1842) Qo'qon xonligi iqtisodiy va siyosiy jihatdan ancha yuksaldi va bir qancha hududlarni, jumladan, Dorboz, Qorategin, Qulob kabi joylarni qo'lga kiritdi. 1826-1831 yillarda Qashg'arda

Xitoyliklarga qarshi kurash olib bordi va halq unga «G'ozii» laqabini berdi.

Madalixon davrida Buxoro amirligi bilan ham tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turdi. Bu urushlarning hammasi mehnatkash halq zimmasiga yangi soliqlar solinishi va aholi turmushining og'irlashuviga olib keldi. Halq g'alayonlari kuchaydi. Hukmronligining so'nggi yillarida davlat ishlidan ko'ra ko'proq ayshu-ishratga berilib ketgan Madalixon dan norozi bo'lgan kuchlar unga qarshi fitna tayyorlaydilar. Davlat boshqarishda katta tajribaga yega bo'lgan va xonning yaqin maslahatchisi Mingboshi haqqulining o'ldirilishi ularga yanada qo'l keldi. Fitnaga bosh qo'shgan Qozi Kalon Toshkent hokimi va boshqalar Madalini taxtdan ag'darib tashlamoqchi bo'ldilar. Ular Buxoro amiri Nasrulloga yelchi yuborib, o'z niyatlarini amalga oshirishda undan yordam so'radilar. 1842 yil aprelda katta qo'shin bilan Qo'qonga bosib kelgan Nasrullo shahar yaqinida joylashdi.

O'ziga qarshi norozolikning kuchayib borishidan havfsiragan Madalixon 1841 yil noyabr oyida ukasi Sulton Maxmud foydasiga taxtdan voz kechgan bo'lsada, sulh so'rab Nasrullo huzuriga yelchi yuboradi. Biroq uning barcha takliflari rad yetiladi va Madalixon oilasini va o'ziga sodiq ming kishini hamda xazinani olib, Namangan tomonga qochadi. Biroq ular Amir Nasrullo farmoni bilan tutib keltiriladi va Madalixon, uni onasi Nodirabegim, Sulton Maxmudxonlar qatl yetiladi. Qo'qonda 12 kun turgan amir Nasrullo bu yerda Ibrohim dodxohni qoldirib o'zi Buxoroga qaytadi.

Ibrohim dodxohning shahar aholisiga zulmni haddan oshirib yuborganligi bois, 3 oy o'tgach unga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi va Ibrohim dodxoh va uning ukasi Isxoq Xo'jand orqali Buxoroga qochadi. qo'zg'olonchilar tomonidan SHERALIXON QO'QON xoni deb ye'lon qilinadi.

1842 yil kuzida Nasrullo Qo'qonni egallash maqsadida katta qo'shin bilan Qo'qonga keladi. Qo'qonliklar unga qarshi qattiq qarshilik ko'rsatadilar va qamal cho'zilib ketadi. Bu orada yesa Xiva xonligi lashkarlarining Buxoro amirligi hududlariga hujum haqida habar keladi va Nasrullo qamalni to'xtatib ortga qaytishga majbur bo'ladi.

Qo'qonni himoya qilishda katta jonbozlik ko'rsatgan Musulmonqul qipchoq mingboshi unvoniga sazovor bo'ladi. Davlat boshqaruvida asta-sekin qipchoqlarning mavqeyi ortib boradi. 1845 yilgacha xonlikda bir oz tinchlik hukm suradi.

1845 yil yozida Murodbek SHERALINI taxtdan tushirish maqsadida Buxoro amiri qo'shinlari yordamida Qo'qonga bostirib keladi. Musulmonqulning shaharda yo'qligi sababli Murodbek SHERALIXONNI o'ldirib, taxtni yegallaydi va o'zini Buxoroning vassali deb ye'lon qiladi. Bundan habar topgan Musulmonqul darhol qo'shin bilan keladi va boryo'g'i 8 kun taxtda o'tiradi Murodbekni taxtdan tushirib, qatl qiladi. Taxtga SHERALIXONNING 13 yoshli o'g'li Xudoyorxon o'tkaziladi va hokimiyat amalda Musulmonqul qipchoq qo'lga o'tib qoladi. Bu holat 1850 yilning o'XIRIGACHA davom yetdi. Musulmonqulning cheksiz hokimiyat yegasi bo'lib qolganligi va qipchoqlarning mavqeyi oshganidan norozi bo'lgan amaldorlar birlashib, Musulmonqulga qarshi kurashlarga tayyorlana boshladilar. 1852 yil xazinani talon-taroj qilishda ayblangan dasturxonchi va risolachi Toshkentga qochib ketganligi uchun 40 ming kishilik qo'shin bilan Toshkentga yurish muvaffaqiyasiz tugadi.

1852 yilning iyun oyida Musulmonqul yana 30 ming kishilik qo'shin bilan Toshkentga yurish qiladi. Lekin shu vaqt Xudoyorxon Chirchiq bo'yida jang bo'layotgan vaqtda Toshkentlar tomonga o'tib ketadi. Musulmonqul tor-mor yetiladi. Kuz oyilarida butun qipchoqlarga qarshi qirg'in boshlanib ketadi. 1853 yil kuzida yesa

Musulmonqulning o'zi tutib olinadi va Qo'qonda dorga osiladi. Xudoyorxon o'z hokimiyatini mustahkamlaydi.

Bu vaqtda yesa tashqi dushman rossiya imperiyasi Qo'qon xonligiga qarshi harbiy harakatlarni kuchaytira boshlagan yedi. Norbo'tabek vafotidan so'ng taxtga o'tirgan Olimxon (1798-1810) hukmronligi yillarida Qo'qon xonligining siyosiy mavqeyi birmuncha yuksaldi. Olimxon harbiy islohot o'tkazib, qo'shinni kuchaytirgach, harbiy yurishlar qilib, Angren vohasi, Toshkent, Chimkent va Turkistonni o'ziga bo'sundiradi va rossiya imperiyasi bilan bevosita aloqalar o'rnatish imkoniyatiga yega bo'ladi. Xonlikning mavqeyi kuchayib bordi va 1805 yilda Olimxon tomonidan «xon» unvoni joriy yetilgach, xonlikning maqomi ham o'zgarib, yendi u Qo'qon xonligi va hukmdorlari xon unvoni bilan yuritiladigan bo'ldi.

Markaziy hokimiyatning kuchayishi hamda davlatni boshqarishda xon hokimiyatining cheksizligi kuchayib borayotgan bir paytda Olimxon siyosatiga qarshi guruhlar paydo bo'ladi va ular tomonidan fitna natijasida 1810 yilda o'g'li Shohruxxon bilan Qo'qon yo'lida o'ldiriladi.

Olimxon o'ldirilgach, o'rniga ukasi Umarxon taxtga o'tiradi. Umarxon ham o'z hukmronligi yillarida (1810-1822) siyosiy vaziyatnin barqarorlashuviga yerisha olmadi. Birin – ketin Chimkent va Turkistonda g'alayonlar ko'tarildi. O'ratepa ham Qo'qonga bo'sunishdan bosh tortdi. Biroq Umarxon din peshvolari madadiga tayanib, bu tarqoqlikning oldini olishga va xonlik hududlarini parchalanib ketishdan saqlab qolishga yerisha oldi. U Chimkent va Turkistonga harbiy yurishlar uyushtirib, ularni markaziy hokimiyatga bo'sundirdi. 1817 yilda O'ratepani bosib oldi. Umarxon Toshkent ustiga ham yurish qildi va uni yegallab oldi. Bu yerga Lashkar qo'shbegi hokim yetib tayinlandi. Turkiston va uning atroflariga yesa Shayx Bedil hokim yetib tayinlandi.

1818 yilda Umarxon Qo'qonda Jomye masjidi qurish haqida farmon beradi va halq orasida ham, din peshvolari, ulamolar orasida katta hurmatga sazovor bo'ladi. Unga «Amir al-mo'minin» unvoni beriladi. Natijada Umarxon diniy va dunyoviy hokimiyatni o'z qo'lida birlashtiradi.

Bu vaqtda Buxoro amirligining ichki siyosiy vaziyati ham birmuncha murakkablashgan yedi. Amir Haydarga qarshi isyon ko'targan guruhlar Amir Umarxondan yordam so'rab murojaat qiladilar. Umarxon bunga javoban Lashkar G'o'shbegi boshchiligidagi Toshkent qo'shinlarini olib, Jizzaxga yurish qiladi va uni qamal qiladi. qamal 40 kundan ortiq davom yetib, ikki o'rtada bo'lib o'tgan to'qnashuvlarda ko'plab kishilar qurbon beriladi va Umarxon ortga qaytishga majbur bo'ladi.

«Jannatmakon» nomi bilan mashhur bo'lgan Umarxon davrida xonlikning siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvoli ancha yaxshilandi va ayniqsa madaniy hayotning taraqqiy yetishida Umarxon saroyida yaratilgan muhit katta o'rin tutdi.

Umarxon 1822 yilda kasallanib vafot yetdi va uning o'rniga 16 yoshli o'g'li Muhammad Alixon o'tkazildi.

16 yoshida taxtga o'tirgan Muhammad Alixon (1822-1841) tez orada otasining amaldorlari bilan davlat boshqaruvini o'z qo'lga ola bildi. Muhammad Alixon o'z hukmronligi yillarida bir qancha harbiy yurishlarni amalga oshirdi. 1834 yilda Qorategin, Kulob, Darvoz viloyatlarini bosib oldi. 1826-1831 yillarda Madalixon bir necha bor Xitoyga qarshi urush olib bordi. Qoshg'ar musulmonlarining Xitoyliklar zulmidan ozod qilishga harakat qiladi va bunda muvaffaqiyatlarga yerishadi. Bu kurashlari uchun halq

Madalixonni «G'ozi» laqabi bilan atay boshlaydi. Bu urushlar natijasida 70 ming uyg'ur musulmonlar Andijon viloyatiga ko'chirib keltirilgan yedi.

Bir qancha muvaffaqiyatlarga yerishgan Madalixon ichki siyosatda bir oz istiqbolsiz siyosat yurita boshlaydi. Avvalo davom yetib turgan harbiy harakatlarning butunlay og'irligi halq zimmasiga tushib, norozilik ko'payib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Umarxon hukmronligi yillarida yoqmay qolgan davlat amaldorlarini birin ketin o'ldira boshlaydi. Bularning hammasi Madalixonidan umumiy norozilikning ortishiga olib keldi. Ayniqsa, uning ahloqiy jihatdan shariatni buzgan deb XIIsoblangan Madalixonga barcha halq tabaqalari qarshi chiqa boshladilar. Bunday ichki siyosiy vaziyatdan unumli foydalangan amir nasrullo 1842 yilda Qo'qonga yurish qiladi va uni qo'lga kiritib, Madalixon va uning onasi Nodira hamda oila a'zolarini qatl yettiradi. Shu tariqa Madalixon davrida katta siyosiy mavqyelarga yerishgan Qo'qon xonligi yana usha Madalixonning noto'g'ri siyosati bilan o'zining mustaqilligidan mahrum bo'ldi.

Qo'qonni egallagan Nasrullo bu yerda o'z noibi Ibrohim mang'itni qoldirdi. Biroq Ibrohim dodxoh haddan tashqari zulm o'tkazgani uchun Qo'qon halqining noroziligi ortib boradi va 3 oy hukmronlik qilgan Ibrohim mang'itga qarshi harakatlar boshlanib ketadi. 1842 yilning yozida qipchoqlar yordamida To'raqo'rg'onda xon yetib ko'tarilgan Sheralixon bu yerdan haydab yuborilgan Ibrohim mang'it o'rniga Qo'qon xonligi taxtiga o'tkazildi.

1842 yil kuzida Amir Nasrullo yana Qo'qonga yurish qilib, uni qamal qiladi. Bu qamalni mustahkamlashda Madalixon davrida yuzboshi bo'lgan Musulmonqul mingboshi katta o'rin tutadi. Qo'qon dastlab Nasrulloxon tomonidan bosib olingan vaqtda 250 qo'qonlik amaldor garovga olingan yedi. Ularning orasida shu Musulmonqul ham bor bo'lib, Nasrulloxon ikkinchi marta Qo'qonga bostirib kelgan vaqtda, qamaldagilarni bo'ysunishga majbur qilishga va'da berib Qo'qonga kelgan va aksincha, qo'qonliklarni mudofaani bo'shashtirmaslikka undagan yedi. Shu tariqa jiddiy bir natijaga yerisha olmagan Nasrullo Buxoro hududlariga Xivaliklarning hujum qilayotganliklarini yeshitib, garovdagi qolgan kishilarni ham ozod yetib, Buxoroga qaytishga majbur bo'ladi va shu tariqa ozod yetilgan Qo'qon taxtiga Sheralixon o'tkaziladi.

1845 yilgacha Qo'qon xonligida nisbatan osoyishtalik hukm suradi. Xonlikda katta mavqyega yerishgan Musulmonqul turli lavozimlarni ham qipchoq amaldorlariga bo'lib bera boshlaydi. Bu yesa o'z navbatida xonlik saroyida qipchoqlar mavqyeining oshib ketishiga olib keldi.

Sheralixon hukmronligi yillarida aholidan soliq undirish kuchaytirildi. Oqibatda halqning norozilik harakatlari kuchayib bordi. Buning ustiga qipchoqliklar boshqa millat vakillarining xonliklariga ta'sirini kamaytirishga harakat qila boshladilar. Bu yesa mamlakatda umumiy norozilikning kuchayishiga olib keldi.

Bu siyosiy vaziyatdan kutulish yo'lini o'ylagan Musulmonkul fitna tayyorlaydi, Bunga ko'ra minglardan bulgan Murodxonni Sheralixonni o'ldirib taxtga o'tirishi kerak yedi. Musulmonkul yesa bu vaqtda Ushda kutarilgan quzg'alonni bostirish uchun borishni ko'zladir va Nasrullo huzurida bir yil yashagan Murodxon Qo'qonga kelib, fitnachilar yordamida taxtga da'vogarlik qiladi. Bu siyosatning tagida qanday maqsad yotganini juda yaxshi anglagan Sheralixon darhol Murodxon foydasiga taxtdan voz kechadi va ko'p o'tmay qatl yetiladi. Musulmonqul yesa O'shdan qaytib kelib, Sheralixonni o'ldirgani uchun Murodxonni qatl yettiradi va taxtga Sheralixonning

13 yoshli o'g'li Xudoyorni o'tkazadi. Unga o'z qizini nikohlab berib, amalda hokimiyatni to'laligicha o'z qo'lga olishga va saroyda qipchoqlarni mavqeyi yanada oshishiga yerishadi.

Musulmonqulning amaldagi hokimiyati 1850 yilgacha davom yetadi. U hokimiyatdan yeng avvalo o'z manfaatlari yo'lida foydalanadi. Bu yesa nafaqat xonlik fuqarolari balki qipchoqlar orasida ham Musulmonquldan ham norozi bo'lgan guruhlarning bo'lishiga olib keladi. Bu guruhga O'ratepa, Xujand, Marg'ilon beklari qo'shilgach ularga Toshkent begi Nurmuhammad ham birlashadi.

1852 yil fevralda Musulmonqul xon bilan birgalikda Toshkentga yurish qiladi va uni qamal qiladi. Marg'ilon qushbegisi Toshkentliklar tarafiga o'tib ketishi qamalning cho'zilib ketishiga olib keladi, yurish muvaffaqiyasiz yakunlanadi.

1852 yil iyunida Musulmonqul yana Toshkentga yurish qiladi. Hal qiluvchi jang Chirchiq daryosi bo'yida bo'lib o'tadi va bu jangda Xudoyorxon o'zining asosiy qo'shinlari bilan Toshkentliklar tomoniga o'tib ketadi. Musulmonqul yesa tor-mor yetilib, bir guruh odamlari bilan qochib qutiladi. Xudoyorxonning bunday yo'l tutishiga Musulmonqulning mavqeyini saqlab qolishi maqsadida rus qo'mondonligi vakili V.V. Vel'yaminov-Zernov bilan maxfiy ravishda uchrashganligi ham sabab bo'lgan yedi.

1852 yil 9 oktyabrda Xudoyorxon Toshkentdan chaqirilgan qo'shinlar yordamida qipchoqlar qirg'inini uyushtiradi va natijada saroyda yuqori mavqyelarni yegallab turgan amaldorlar bilan bir qatorda 20 mingdan ortiq qipchoq o'ldiriladi. 1853 yil kuzida yesa qirg'izlar orasida yashirinib yurgan Musulmonqul qo'lga olinadi va qatl yetiladi. Shu tariqa xonlikning ichki siyosiy vaziyati bir muncha barqarorlashtiriladi. Ayni shu vaqtlarda yesa xonlik hududlariga chor rossiyasining bosqinchilik maqsadidagi mustamlakachilik yurishlari boshlanayotgan va ruslar Oq machit kal'asini bosib olishga yerishgan yedilar.

Qo'qon xonligidagi ijtimoiy tabaqalar ularning jamiyat hayotidagi mavqeyi qo'shni Buxoro davlatidan aytarli farq qilmaydi. Davlatda xon va uning yaqinlari, markaziy mahalliy boshqaruvni amalga oshirgan. Mahalliy manbalarda vazir ul-vuzaro, amir ul-umaro, harbiy ma'muriy amadorlarning mavqeyi juda yuqori bo'lgan. Musulmonruxoniylari ham alohida imtiyozlarga yega tabaqa hisoblangan. Davlat boshqaruvida ta'lim-tarbiyada, sud ishlarida va jamiyatning turli sohalarida ularning fikri katta ahamiyat kasb yetgan. Jamiyatning yeng ko'p sonli va kam huquqli tabaqasi oddiy halq-fuqaro bo'lgan.

Xonlikning iqtisodiy hayotida dehqonchilikning salmog'i katta yedi. Xonlik hududida suv manbalarining yetarli bo'lganligi dehqonchilikdan yuqori hosil olshi imkonini bergan. Asosan donli yekinlar, shuningdek, polizchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, sholikorlik yaxshi rivojlangan. XIX asrga kelib paxta yekiladigan maydonlar ham kengayib bordi. Paxtaning asosiy haridori rossiya yedi.

Chorvachilik mamlakat iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan soha bo'lib, ayniqsa ko'chmanchi qirg'iz qabilalari yashaydigan tog' oldi hududlarida Toshkent vohasi va Turkistonda yaxshi rivojlangan yedi. O'troq aholi yashaydigan hududlarda uy chorvachiligi mavjud yedi.

Xonlikda O'rta Osiyo mintaqasiga xos barcha hunarmandchilik turlari: to'qimachilik, kulolchilik, temirchilik, miskarlik, duradgorlik va boshqalar mavjud yedi. Iqtisodning bu sohasi asosan yirik shaharlar: Qo'qon, Toshkent, Andijon, Marg'ilon, O'sh, Xo'jand, Turkiston kabilarda yaxshi rivojlangan bo'lib, qishloqlarda ham bu soha ancha

taraqqiy yetgan yedi.

Xonlikdagi murakkab siyosiy vaziyat savdo-sotiq aloqalariga salbiy ta'sir yesada, xonlikning yirik shaharlarida savdo munosabatlari keng doirada olib borilardi. Mamlakat iqtisodida muhim ahamiyatga yega bo'lgan tashqi savdo aloqalari ham yo'lga qo'yilgan yedi va yaqin xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalari olib borilardi. XIX asrdan boshlab tashqi savdoda rossiyaning salmog'i ortib bordi. Chetga mahalliy mahsulotlar chiqarilsa, chetdan asosan metallar va fabrika mahsulotlari keltirilardi. Shuningdek tranzit savdo ham muhim ahamiyat kasb yetgan. XIroj va zakotdan tashqari majburiy soliqlar ham bo'lgan. Qo'qon xonligi ijtimoiy asosiy xususiyatlar boshqa ikki xonlikdagidan katta farq qilmaydi. Xonlikda davlat boshqaruvini xon va uning yaqinlari amalga oshirganlar. Davlat boshqaruvida, shuningdek, harbiy-ma'muriy amaldorlarning mavqyei ham katta bo'lgan va ular markaziy hamda mahalliy boshqaruvni amalga oshirganlar. Bular o'z hizmatlari yevaziga muayyan imtiyozlarga yega tabaqa hisoblansa, din peshvolari ham o'ziga xos imtiyozlarga yega va davlat boshqaruvida muayyan ta'sirga yega bo'lgan tabaqa hisoblangan. Jamiyatning yeng ko'p sonli va kam huquqli tabaqasi oddiy halq fuqaro hisoblangan. Asosiy moddiy boyliklar aholining ana shu tabaqasi tomonidan yaratilgan.

Xonlikning iqtisodiy hayotida dehqonchilikning salmog'i yuqori bo'lgan. Bu sohada Farg'ona vodiysi alohida muhim ahamiyatga yega bo'lgan. Xonlikning boshqa hududlarida suv yetarli bo'lganligi uchun sug'orma dehqonchilik ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan va O'rta Osiyo mintaqasiga xos bo'lgan deyarli barcha yekin turlari yetishtirilgan. Ayniqsa XIX asrga kelib paxta yetishtiriladigan maydonlar kengayib bordi va paxtaning asosiy haridori rossiya hisoblangan. Yerga yegalik qilishning an'anaviy usullari saqlanib qolingan bo'lib, yerlarning asosiy qismi davlatga, hususiy shaxslarga va diniy muassasalarga qarashli bo'lgan. Harbiy hizmatlar uchun «Tanxo», «Tarxon» shaklidagi yerlar berilgan va undan foydalanish avloddan-avlodga meros bo'lib o'tmagan.

Chorvachilik ham iqtisodiy sohaning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan. Bu soha Toshkent vohasi va Turkistonda yaxshi rivojlangan yedi. Chorvachilikning yeng rivojlangan sohasi qo'ychilik va yilqichilik hisoblangan. O'troq aholi orasida uy chorvachiligi keng tarqalgan.

Hunarmandchilikning asosiy markazlari Qo'qon, Toshkent, Andijon, Marg'ilon, O'sh, Turkistonda yaxshi rivojlangan yedi.

Bu soha vakillari to'qimachilik, miskarlik, kulolchilik. Zargarlik, ipak va shoyi mtolar to'qish va boshqa ko'plab hunarmandchilik turlari va kasb sohalarida o'z mahsulotlarini san'at asarlari darajasiga yetkazib tayyorlash bilan birga, aholining hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan talablarini qondirish va tashqi bozorga ham chiqarar yedilar.

Xonlikning ichki va tashqi siyosati birmuncha murakkab bo'lishiga qaramasdan ichki va tashqi savdo munosabatlari o'z taraqqiyotida davom yetdi. Ichki savdoda Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Toshkent, Chimkent, O'ratepa va boshqa shu kabi yirik shaharlar asosiy o'rin yegallasa, bu shaharlardagi ixtisoslashgan bozorlar va karvonsaroylar savdo-sotiq rivojining asosiy omillaridan yedi.

Tashqi savdoda xonlik rossiya, XItoy, Hindiston va boshqa davlatlar bilan keng aloqalar olib borardi. Tashqi davlatlardan asosan fabrika mahsulotlari, choy va ziravorlar kabi tovarlar keltirilsa, tashqariga qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik

buyumlari asosiy tovarlar hisoblanardi.

Xonlikda asosiy soliq turi XIroj va zakot bo'lib, bundan tashqari turli Xil soliqlar va yig'implar yig'ib olinardi. Shuningdek aholi turli vaqtlarda majburiy hashar ishlariga ham jalb yetib turilardi. Harbiy harakatlar vaqtida yesa soliqlar miqdori va turlari o'zgarib turardi.

XVIII asrning boshlariga kelib Toshkent shaxri O'rta Osiyo shimoliy sharqiy qismining yirik siyosiy va iqtisodiy markaziga aylanadi. Shaxar tarixini yozgan Muxammad Solix 1739 yilda Toshkentga kelgan Karl Miller 1741 yilda shaxarga kelgan malumotlarining taxlili shuni ko'rsatadiki XVIII asrda Toshkent taxminan 16km² maydonni egallagan, 80000 aholi istiqomat qilgan shaxar bo'lgan. Xozirgi eski Toshkent deb atalayotgan xudud o'sh davrdagi Toshkentning o'zagini tashkil qilgan.

XVIII asr boshlarida Toshkent juda xam boy va chiroyli shaxar bo'lgan. Faqat yirik masjidlar miqdori 40 ta bo'lgan. Shaxar atrofii XIroya devori bilan o'ralgan. Darvozalarning soni 12 ta bo'lgan. Shaxar markazidagi xukmdor qarorgoxi xam klin devor bilan o'rab olingan. Shaxarga suv Chirchiq daryosidan Bo'zsuv kanali orqali keltirib, shaxar ichida u 5ta katta ariqqa bo'lingan. Ariqlar xam o'z navbatida kichkina ariqchalarga bo'linib xovlilar orqali o'tkazilgan. Bu esa shaxarning ichida xam bog'dorchilikni rivojlantirish va poliz ekinlarini ekish imkonini bergan.

XVIII asrning boshida Toshkent erkin shaxar xisoblanib faqat atrofdagixududlarni o'ziga bo'ysindirgan bo'lsa, asr o'XIriga kelib Chimkent va Turkiston xududlari xam Toshkentga bo'ysindiradilar. Shaxar va viloyatni boshqarishning xarbiy polisiya funksiyasi shaxarga o'z drujinasi bilan qozoq xoniga topshirilgan va buning evaziga xonga malum miqdorda o'lpon to'langan xo'jalik, savdo sotiqliklari bilan esa aholi tomonidan saylangan maxsus organ shug'ullangan. Ko'chmanchilar istiqomat qiladigan xudud bilan o'troq aholi xududi chegarasida joylashganligi Toshkentga savdo tijorat va xunarmandchilikni rivojlantirish uchun juda yaxshi imkoniyat yaratgan edi.

Xunarmandlar shaxar aholisining aksariyatini tashkil qilganlar. Shaxardagi eng rivojlangan xunarmandchilik tarmog'i to'qimachilik bo'lgan. Metalni qayta ishlash, ko'nychilik, kulolchilik, mo'ynaga ishlov yerish kabi tarmoqlar xam rivojlangan edi. Toshkentlik savdogarlar nafaqat qozoq ko'chmanchilari balki Buxoro, Qo'qon va Rossiya xududlari bilan mustahkam savdo aloqasida bo'lganlar. Toshkent XVIII asrga kelib O'rta Osiyo xonliklarining qozoq cho'llari va Rossiya, ayniqsa uning sharqiy xududlari bilan savdo aloqalarining tranzit punktlariga aylanadi. Markaziy bozor xozirgi Chorsu xududida joylashgan edi. Savdodan olinadigan foyda nafaqat iqtisodiy balki siyosiy jixatdan xam shaxar aholisi nufuzining olishiga olib keldi. Natijada iqtisodiy jixatdan baquvvat bo'lgan aholi feodallar va xonlar xokimiyatini cheklash va to'xatto u O'rta Osiyoda juda kam uchraydi. U shaxar o'z-o'zini boshqarish organlarini tuzishga xam muvoffaq bo'lgan. Shaxarda xokimiyat axolii tomonidan tayinlangan xo'jalar qo'lida mujassamlashgan edi. Ular soliqlar to'plar, sud ishlari bilan shug'ullanar va xatto Toshkentliklar nomidan boshqa mamlakatlar bilan diplomatik yozishmalar olib borar edilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Olimxon va Umarxon hukmronligi yillarida Qo'qon xonligi siyosiy hayotining asosiy jihatlarini ochib bering.
2. Madalixon hukmronligi yillarida Qo'qon xonligining siyosiy mavqeyining yuksalishi va inqirozini qanday baholaysiz?

3. Amir Nasrulloning Qo'qon xonligini bosib olishi qanday oqibatlarga olib keldi?
4. Musulmonqulning Qo'qon xonligi siyosiy hayotidagi o'rnini tahlil qiling.
5. Xonlikning XIX asr birinchi yarmidagi iqtisodiy va ijtimoiy hayotidagi o'ziga xoslikni ochib bering?

TAYANCh TUSHUNChALARI:

«Amir al-mminin», «amir al-muslimin»-mo'minlar, musulmonlar amiri. (diniy unvon)
Xiroj-yer solig'i, pul va mahsulot tarzida undirib olingan va hosilning 5\1 qismini tashkil yetgan.

Zakot-mol solig'i, mulk yegalari va savdogarlardan olinadigan soliq turi, umumiy mulkning 40\1 qismini tashkil yetgan.

«Tanxon», «Tarxon»-harbiy xizmatlar yevaziga beriladigan yer-mulk, avloddan-avlodga meros bo'lib o'tmagan.